



Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 27-yanvar, № 21 (8644)

Shanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-yanvar kuni Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama yaxshi qo'shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari bugungi kunda yuksak darajaga ko'tarilganini alohida mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Mamlakatlarimiz hukumatlari, idoralari, hududlari va ishbilanmon doiralari o'rtasida yaqin aloqalar va almashinuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, avtomobilsozlik, elektrotexnika

va to'qimachilik tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor yo'nalishlarda, shu jumladan, qo'shma Taraqqiyot fondi doirasida sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ilgari surish bo'yicha birgalikda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qo'llab-quvvatlandi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik dasturini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Qirg'iziston yetakchilari Markaziy Osiyo mintaqasidagi infratuzilimiy loyihalarni amalga oshirish masalalarini muhokama qildilar, bo'lajak uchrashuvlar rejasini ko'rib chiqdilar.

MAKTAB TA'LIMI SIFATINI YAXSHILASH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-yanvar kuni maktab ta'limi sifati yaxshilash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 10 ming 284 ta maktab bor. So'nggi yillarda ulardagi sharoitlarni yaxshilash, o'quvchi o'rnini ko'paytirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Maktablarni yiliga o'rtacha 400 ming o'quvchi bitirayotgan bo'lsa, ularning 170 ming nafari ta'limni davom ettirmoqda. Rivojlangan davlatlarda 50 foizdan ziyod bitiruvchilar professional ta'lim muassasasiga kiradi.

Hozirgacha 208 ta maktabning yuqori sinf o'quvchilarini uch yo'nalish bo'yicha kasbga o'rgatish yo'liga qo'yildi. Chet tilini bilish sertifikatiga ega bo'lgan maktab bitiruvchilari soni oxirgi ikki yilda 6 ming nafardan 18 mingga yetdi.

Shu bilan birga, bu ishlarni izchil davom ettirish zarur. Ta'lim sifati oshirish uzluksiz jarayon.

Taqdimotda shu maqsaddagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Bugungi kunda hududlardagi 500 ta maktabda Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimi joriy etilgan. Natijada ilg'or xorijiy tajriba asosida vaziyatni tahlil qilish, muammoni yechish, jamoada ishlash kabi amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizga yetkazilgan.

Kelgusi o'quv yiliga qadar ushbu baholash tizimini xalqaro testologiya mezonlariga moslashtirish zarurligi aytiladi. Maktablarning o'zi ham akkreditasiyadan o'tkaziladi. Bu xalqaro baholash mezonlarini milliy tizimga joriy qilish, maktablarni boshqarish va ta'lim sifati oshirishga xizmat qiladi.

Pedagoglarning bilim va mahorati masalasiga e'tibor qaratilgan ekan, malaka oshirish markazlari eskicha ishlayotgani, ilmiy salohiyati yuqori emasligi qayd etildi. Shu bois 14 ta hududdagi bunday markazlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish, o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish dasturlarini joriy etish vazifasi qo'yildi.

Maktablarda xorijiy til bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini bu

bilan uyg'unlashtirish zarur. Xorijiy tilni intensiv tarzda o'rgatish amaliyotini ham kengaytirish lozim.

Ma'lumki, yurtimizda xususiy maktablarga imkoniyat berilgani natijasida ularning soni ko'payib bormoqda. Bu davlat maktablariga yuklamani kamaytirish va sog'lom raqobatga xizmat qilmoqda. Shu bois xususiy maktablar uchun litsenziya talablarini yanada soddalashtirish, kredit, soliq va kommunal to'lovlardan qo'shimcha yengilliklar berish bo'yicha takliflar bildirildi.

Mutasaddirlarga ta'lim tashkilotlari faoliyatini va ta'lim sifati monitoringi platformasini ishga tushirishga topshiriq berildi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, ta'limning barcha bo'g'inida islohotlarni yagona konsepsiya asosida amalga oshirish bo'yicha Loyiha ofisi tashkil qilindi. U bog'cha, maktab, kasbiy hamda oliy ta'limda o'quv standarti va dasturlarini ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqishga mas'ul bo'ladi.

Davlatimiz rahbari maktablar faoliyatida mahalla raisi va faollarining o'rnini katta bo'lishi kerakligini ta'kidlab,

— Mahalladagi muhit, aholi bandligi ko'p jihatdan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Shunday ekan, mahalla raisi ota-onalar bilan birga maktablar hayotida faol qatnashishi, yoshlarning bilimi va kasb egallashiga e'tiborini ko'rish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, maktab masalasi faqatgina ta'lim sohasining emas, ota-onalar, mahalla faollari, butun jamiyatning ishi. Chunki maktab mamlakat kelajagining zamini. "Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi" degan maqol zamirida ham ayni shu haqiqat mujassam. Shunda ota-onalar ham o'z farzandlari tarbiyasiga yanada e'tiborliroq bo'ladi. Tobora globallashtirilayotgan hozirgi zamonda bu juda muhim.

O'ZA.

O'ZBEKISTON GLOBAL INNOVATSION INDEKSDA O'Z O'RNINI MUSTAHKAMLAMOQDA



Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Global innovatsion indeksda mamlakatimiz o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar "TOP — 50" qatoriga kirish vazifasi qo'yilgan edi. Buni amalga oshirish uchun esa mazkur indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish belgilab berildi.

Tahlil

Natijada o'tgan yillarda O'zbekiston ilk marotaba Global innovatsion indeks ("The Global Innovation Index" — GI)da o'z o'rniga ega bo'ldi. Har yilgi an'ana

bo'yicha Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan dunyoning 132 ta mamlakati ko'rsatkichlari bo'yicha mazkur indeksning (GI-2023) 16-nashrini e'lon qildi. Nashr ma'lumotlariga ko'ra keyingi yillarda jahonda innovatsion jarayon to'xtovsiz

rivojlanib bormoqda. Bular, asosan, sun'iy intellekt (AI), super hisoblash va avtomatlashtirish negiziga qurilgan raqamli innovatsion biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar asoslangan chuqur ilmiy innovatsiyalarda namoyon bo'ladi.

Joriy reytingda O'zbekiston o'z o'rnini yanada mustahkamlab oldi. Tabiiyki, keyingi yillarda dunyoda yuz bergan turli voqe'liklar hamda jarayonlar, jumladan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bu pandemiya bo'ladimi, tabiiy ofatlar, zilzilalar bo'ladimi, qurolli to'qnashuvlar, global isish hamda

qurg'oqchilik bo'ladimi — barchasi bashariyatni qattiq sinovdan o'tkazdi va o'tkazmoqda". Shunday og'ir sinovli davrda mamlakatning nufuzli xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini ushlab turishning o'zi bo'lmaydi, albatta.

O'zbekiston ilk bor Global innovatsion indeksga kirganda 93-o'rnini egallagan edi, bugun esa reytingning yuqori 100 taligida so'nggi yillarda eng ko'p yuqorilagan Marokash (70-o'rin), Misr (86-o'rin) va Pokiston (88-o'rin) kabi mamlakatlar qatorida, ya'ni 82-o'rinida.



Hamkorlik

DELEGATSIYAMIZ XALQARO FORUMDA QATNASHDI

Shu yilning 25-yanvar kuni Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB)ning Londondagi bosh qarorgohida "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar va ijtimoiy sheriklik" mavzuida xalqaro forum o'tkazildi.

YTTB, Oliy Majlis Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi va "Sabr" ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi hamkorligida tashkil etilgan tadbirida yuqori darajadagi 100 dan ortiq ishtirokchilar, jumladan, YTTB, mamlakatimiz parlamenti yuqori palatasi hamda vazirliklar, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va biznes hamjamiyatlari vakillari qatnashdi.

Anjumanda O'zbekistondagi davlat idoralari, biznes tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlik ayollar tadbirkorligi va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq muammolarni hal etishda qanday foyda berayotgani masalasi keng muhokama qilindi.

Forumning ochilish marosimida Oliy Majlis Senati Raisi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika

komissiyasi raisi Tanzila Norboyeva keyingi yetti yilda mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiyotni liberallashtirish borasida tub o'zgarishlar amalga oshirilganiga alohida e'tibor qaratdi.

Bugun o'zbekistonlik tadbirkorlar jahon bozorlariga ishonch bilan qadam qo'yimoqda. Bu boradagi byurokratik to'siqlar bartaraf etildi. Majburiy va bolalar mehnatiga to'liq barham berildi, gender tenglikni ta'minlash borasida amaliy natijalarga erishildi. Bularning barchasi jahon hamjamiyatining munosib e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Bunday natijalarga erishishda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi muhim o'rin tutmoqda, — dedi Senat Raisi.

O'z navbatida, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lidagi strategik hamkoriga aylanganligi alohida urg'ulandi.



Aks sado



O'ZARO ALOQALARIMIZDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

Yaqin istiqbolda O'zbekiston va Xitoy o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 20 milliard dollarga yetkazmoqchi. Bu, birinchiidan, oxirgi o'n yilda jahonning qudratli davlatlaridan biriga aylangan Xitoy Xalq Respublikasi bilan aloqalar kuchayotganini bildirsa, ikkinchidan, O'zbekistonning xalqaro maydondagi salohiyati yuksalib borayotganini anglatadi.

Bugun Xitoy muhim xalqaro jarayonlarning mas'uliyatli ishtirokchisi sifatida jahon iqtisodiyoti va boshqaruvida yetakchi o'rinida. Katta nufuzga ega, iqtisodiyoti rivojlangan ushbu mamlakat bilan O'zbekiston o'rtasida do'stona munosabatlarga yangi bosqichga chiqayotganidan xalqimiz mamnun. Zero, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik ming yilliklarni qamrab olgan.

Ta'kidlash joizki, Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi strategik sheriklik ikki mamlakat taraqqiyoti uchun

muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, O'zbekistonda Xitoyning "Lu Ban ustaxonasi" professional ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha pilot loyiha boshlanganini olaylik. Ta'limdagi hamkorlik — bu barcha sohaga ilm-fanni olib kirish orqali iqtisodiy yuksalishlarga erishish demak.

Ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanayotir. O'tgan yil yakunlari bo'yicha tovar ayirboshlashning 14 milliard dollarga yetgani, yaqin istiqbolda bu ko'rsatkich yanada oshishi kutilayotgani quvonarlidir.



"YASHIL HAFTALIK — 2024" KO'RGAZMASIDA O'ZBEKISTON MAHSULOTLARI NAMOYISHI

Berlingda "Yashil haftalik — 2024" xalqaro qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida O'zbekiston o'z milliy mahsulotlarini namoyish qilyapti. 1926-yilda Germaniyada asos solingan "Yashil haftalik" oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi hamda bog'dorchilik sohasida yetakchi xalqaro savdo yarmarkasi hisoblanadi. "Yashil haftalik — 2024" 28-yanvargacha davom etadi.

Biz va jahon

O'zbekistonning mazkur xalqaro tadbirdagi ishtiroki Qishloq xo'jaligi vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va mamlakatimizning Germaniyadagi elchixonasi tashabbusi bilan amalga oshirilmogda.

Mamlakatimizning 50 dan ortiq yetakchi korxonalar vakillari ishtirok etayotgan yarmarkada ho'l va qayta ishlangan meva-sabzavotlar, konservalangan mahsulotlar, turli meva

sharbatlari va nektarlardan iborat salqin ichimliklar, quritilgan meva, ziravor va sabzavotlar hamda qandolat mahsulotlari va boshqa 192 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari taqdimoti amalga oshirilmogda, shuningdek, "B2B" uchrashuvlari tashkil etilmogda.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi XVI oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xalqaro



forumi hamda "Yashil haftalik — 2024" ko'rgazmasining ochilish marosimi va XVI qishloq xo'jaligi vazirlari konferensiyasi tadbirlarida ham ishtirok etdi.

Tadbir davomida Polsha, Chexiya,

Latviya, Tojikiston qishloq xo'jaligi vazirlari, Germaniya Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi vazirligining parlamentar davlat kotibi, Vengriya qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari va GFR Qishloq xo'jaligi jamiyati hamda boshqa

qator mamlakatlar rasmiy vakillari va kompaniyalarning rahbarlari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi va muhim kelishuvlarga erishildi.

"Dunyo" AA. Berlin



It hurar, karvon o'tar

Vatan mustaqilligi, millat taqdiri uchun kurash — abadiy kurash

Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan alohida qayd etilganidek, O'zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birlamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni o'z hayotining ma'nosi deb bilimgi kerak! Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

Bu fikrlar bejiz aytilgani yo'q. Bugun biz dunyoda imperiyaparastlik va shovinizm bosh ko'tarayotgan, tajovuz va tahdid tobora ortayotgan, tarixni buzib talqin qilish kuchayayotgan, kamsitish, bosqinchilik, vayronkorlik

va bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, adovat qo'zg'ash, urushlarni mo'ljallashtirish, ichki ishlarga aralashish ochiq-oydinlik kasb etayotgan ziddiyatli va murakkab bir davrda yashayapmiz.



FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi muhokamasida O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Zafar Xudoyberdiyev ayrim mulohazalarini bildirib o'tdi.




Tashabbuskorlar tomonidan "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning amaldagi tahririga ikkita yangi — "iqtisodiy ta'siri past holatlar" va "profilaktik-tushuntirish tadbirlari" tushunchalarini kiritish taklif etilmoqda. Ammo loyihadagi ushbu tushunchalarning ta'riflari mavjud emas. Tadbirkorlar faoliyatiga aloqador qonunlarda har bir tushunchaning aniq ta'rif bo'lishi kerak. Masalan, "profilaktik-tushuntirish tadbirlari" qanday tadbir ekanini, qaysi vakolatlari tashkilot tomonidan qachon o'tkazilishi qonunda belgilab qo'yilmasa, ertangi kunda amalda turlicha talqinlarni yuzaga keltirishi mumkin", dedi deputat Munozaralar chog'ida.

"Milliy tiklanish" DP



"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi Ilhom Abdullayev ayni paytda qizg'in muhokamalarga sabab bo'layotgan pasport tizimiga oid tartib qayta ko'rib chiqilayotgan qonun loyihasining konsepsiyasiga e'tirozlarini bildirdi. Deputatning qayd etishicha, mazkur qonun loyihasini ishlab chiqishga asos sifatida ko'rsatilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan ko'zlangan maqsadlar parlamentga taqdim etilgan qonun loyihasida o'z aksini topmagan. Bugungi kunda fuqaroning pasporti yoki ID-kartasi yo'qolishi jamiyatga qanday xavf tug'dirishi mumkinligi savol ostida qolmoqda. Ularni biometrik amfilarisiz ishlatib bo'lmaydi, ya'ni ulardan o'z egasining ishtirokisiz foydalanishning imkonini yo'q.

"Adolat" SDP



"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Qodir Jo'rayev partiya rahbarlarining murojaatini qo'llab-quvvatladiki. Deputatning qayd etishicha, Vobkent tumani, "Bozorjoyi" MFY hududidagi "Tosh masjid" — XVI asrda shayboniylar davrida qurilgan o'ziga xos me'moriy yechimga ega bo'lgan obida sanaladi. Sobiq ittifoq davrida hukumat ushbu me'moriy obidada tegirmon qurgan, hatto, mineral o'g'itlar ombori sifatida foydalangan. Oqibatda bino devorlari darz ketib, butunlay yaroqsiz holga kelib qolgandi. "Partiyamiz faollari ushbu noyob tarixiy obidani kelajak avlodlarga bus-butun holda yetkazib zarurligini ta'kidlaydi. Ularning murojaatlaridan so'ng, Vobkent tumani hokimligi ko'ha'ni obidani ta'mirlash ishlari boshlagani e'tirofga loyiq. Zero, qadimiy tarixdan so'zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o'rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazib har birimizning burchimizga aylanmog'i lozim", dedi deputat.

O'zXDP



O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasida O'zXDP fraksiyasi a'zosi Maqsuda Vorisova partiya mahkumlarining huquqlari kengaytirilayotganini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. "Ayni paytda Jinoyat-ijroiya kodeksining ayrim normalarga qo'shimchalar kiritish lozim, deb o'ylaymiz. Gap shundaki, kodeksning 113-moddasida yopiq turdagi tibbiyot muassasalarida maxsus davolanish talab etiladigan yuqumli kasalliklarga chalgan bemorlar hamda majburiy davolanishdan o'tayotgan mahkumlar manzil koloniyalariga o'tkazilmasligi belgilab qo'yilgan. Lekin yuqumli yoki majburiy davolanadigan kasalliklar ro'yxati kodeksda keltirilmagan. Havolaki normalardan voz kechib, qonunning o'zida ko'plab savollarga javob beradigan normalarni aks ettirish maqsadga muvofiq", dedi j.

O'zbekiston Ekologik partiyasi

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar muhokamasida Ekopartiya fraksiyasi a'zosi Muxtorjon Hojimatov elektrosamakot, sigvey, velosiped va shu kabi individual harakatlanuvchi vositalarni boshqaradigan shaxslar harakatini tartibga soluvchi qonuniy mexanizmlar ishlab chiqilayotganini judayam to'g'riligini ta'kidladi.



"Ko'p bora guvoh bo'lamiz: yo'lning qatnov qismida ayrim "elektrosamakotchilar" o'zi yoki yo'lning boshqa ishtirokchilariga xavf tug'diradigan darajada qattiq harakatlanishi uchrab turadi. Boshqalarga xalal berib harakatlanadigan velosipedchilar ham oz emas. Lekin masalaning yana bir jihatiga e'tibor qaratisa, maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ya'ni individual harakatlanuvchi vositalarning xavfsiz va qulay harakatlanishi uchun yetarlicha sharoit, infratuzilma to'liq yaratilganidan keyingina qoidabuzarlik uchun javobgarlik belgilansa, adolatlardan bo'ladi", dedi deputat.

O'ZBEKISTON GLOBAL INNOVATSION INDEKSDA O'Z O'RNI NI MUSTAHKAMLAMOQDA



Ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonning 2030-yilda Global innovatsion indeksda kuchli 50 talikdan joy olishi maqsad qilingan edi. To'g'ri, mazkur indeksning ayrim muhim ko'rsatkichlarida past indikatorlarga egamiz. Shu bois mamlakatimizda ushbu past indikatorlar bo'yicha pozitsiyani yaxshilash hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada ayrim davlatlar kabi pastlash yoki indeksdan butunlay chiqib ketish emas, balki oldinga siljishga erishilmoqda.



(mazkur ma'lumotlar "GII — 2022" bilan taqqoslanadi).

Birinchii indikator bo'yicha ma'lumotlarga e'tiborni qaratadigan bo'lsa, mamlakatimiz "Instituttar" (Institutions)da 8 pog'onaga, ya'ni 63 dan 55 ga yuqorilgan. Bunda siyosiy muhit, qonunchilik bazasi, biznes muhiti parametrlari bo'yicha baho berilgan. Mazkur indikatorda eng yaxshi natija sifatida biznes muhiti va uni yuritish siyosati e'tirof etilgan, ya'ni kuchli tomonlari va daromadligi ko'rsatilgan. Bu sohada O'zbekiston 104-o'rindan 97-o'ringa yuqorilgan. Bu indikatorda Turkiya davlatlar tashkilotining ayrim mamlakatlari, jumladan, Turkiya 105-o'rin — zaif, Qozog'iston 61-o'rin — kuchli, Ozarbayjon 42-o'rin — juda ham kuchli, kuzatuvchi mamlakat Vengriya 47-o'rin — kuchli tomonlarga ega deb baholangan. Ko'rinib turibdiki, mazkur indikator natijalarini yanada yaxshilashimiz uchun Ozarbayjon va Vengriya davlatlarining tajribasini keng o'rganishimiz lozim bo'ladi.

Mamlakatimiz ko'rsatkichlarning ikkinchisida — "Inson kapitali va tadqiqotlar" (Human capital & research)da 24 pog'onaga pastlagan, ya'ni 89-o'rinni egallagan. Bunda, asosan ta'lim, oliy ta'limga kirish, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar ko'rsatkichlariga e'tibor qaratilgan. Mazkur indikatorda Turkiya 41-o'rin — kuchli, Qozog'iston 59-o'rin — kuchli, Ozarbayjon 87-o'rin — zaif, kuzatuvchi mamlakat Vengriya 36-o'rin — kuchli tomonlarga ega, deb baholangan. Demak, Vengriya va Turkiyaning bu boradagi tajribalaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiq.

Reytingning uchinchi — "Infratuzilma" (Infrastructure) ko'rsatkichida mamlakatimiz 2023-yil bo'yicha 73-o'rinda qayd qilindi. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bosh infratuzilma, ekologik muvozanat ko'rsatkichlari hisobga olingan. Ushbu indikatorda ancha kuchli tomonlarimiz bor, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari investitsiyalar, savdo, diversifikatsiya va bozor hajmi baholangan.

Reytingning "Biznes jozibadorligi" (Business sophistication) nomi beshinchii ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 78-o'rinda, bu 2022-yildagiga nisbatan 4 darajaga pasayganini bildiradi. Vaholanki, mazkur ko'rsatkich 2021-yildagiga nisbatan 2022-yilda mutlaq rekord darajaga ko'tarilgan edi (49 pog'onaga, ya'ni 123-o'rindan 74-o'ringa yuqorilgan).

Reytingning mazkur ko'rsatkichlarida birgina biznes tomonidan moliyalashtirilgan "GERD"ni hisobga olmaganda, kuchli tomonlarimiz mavjud emas. "Biznes jozibadorligi" indikatorida Turkiya 46-o'rin — kuchli, Qozog'iston 75-o'rin — zaif, Ozarbayjon 64-o'rin — kuchli, kuzatuvchi mamlakat Vengriya 30-o'rin — o'ta kuchli tomonlarga ega deb baholangan. Ushbu indikatorda Vengriya va Turkiya davlatlaridagi biznes jozibadorligi bo'yicha ko'rsatkichlarni o'rganish lozim bo'ladi.

Reytingning oltinchi — "Ilmiy va texnologik natijalar" (Knowledge & technology outputs) ko'rsatkichida mamlakatimiz 78-o'rinda qayd etilgan. 2022-yildagiga nisbatan ikki pog'onaga o'sishga erishilgan. Yurtimiz so'nggi uch yilda bu indikatorda 90-o'rindan 78-o'ringa

ham, shart-sharoitimiz ham yetarli. "Biznes jozibadorligi" indikatorida 2022-yildagiga nisbatan pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy reytingda nisbatan yaxshiroq ko'rsatkichga egamiz. Bu indikatorni kelgusida oshirish uchun bilimli xodimlar, rasmiy trening taklif qiluvchi firmalar, xorijdan moliyalashtirilgan "GERD", qo'shma korxonalar/strategik sheriklik bitimlari, patent hajmi, bilimlarni o'zlashtirish va intellektual mulk uchun to'lovlar kabi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash talab etiladi.

Mazkur indikatorda kuchli 50 talikka kiradigan ko'rsatkichimiz ham yo'q emas, jumladan, biznes tomonidan amalga oshirilgan "GERD", biznes tomonidan moliyalashtirilgan "GERD", yuqori darajada ish bilan ta'minlangan ayollar, innovatsion aloqalar, universitet va sanoatning ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlik, klastering rivojlanish holati, umumiy savdo, yuqori texnologiyalar importi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda tadqiqot qobiliyati. Albatta, hukumatimiz tomonidan bu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar davom etmoqda.

"Ilmiy va texnologik natijalar" bo'yicha indikatorda ikki pog'onaga o'sishga erishilgan. O'sish tendensiyasi qator ko'rsatkichlar, xususan, bilimlarni yaratish (ijodiy yondashuv), patentlashtirish, mehnat unumdorligini o'sishi, yuqori texnologiyalar yaratish, ishlab chiqarish va eksportning jozibadorligi, dasturiy ta'minot xarajatlari, foydali modellar hisobiga amalga oshmoqda. Albatta, kelgusida natijalarni yanada yaxshilash mumkin. Buning uchun ilmiy va texnik maqolalar, "RST" patentlari, iqtibos qilinadigan hujjatlar h-indeksi, bilimlarning tarqalishi, intellektual mulk obyektini bo'yicha tushumlar, yuqori texnologiyalar eksperti va AKT xizmatlari eksperti bo'yicha subindikatorlarga e'tibor qaratis lozim bo'ladi.

"Ijod mahsuli" bo'yicha indikator O'zbekiston 9 pog'onaga yuqorilgan. Bu nomoddiy aktivlar, savdo belgilari, sanoat namunalari, madaniy-ijodiy xizmatlar eksperti, milliy badiiy filmlar, ko'ngilochar va media bozori, mobil ilovalarni yaratish, matbaa va boshqa ommaviy axborot vositalari hamda ijodiy mahsulotlar ekspordida yutuqlarga erishilayotganidan dalolat. Mazkur indikatorni yanada yaxshilash uchun global brend qiymati, ijodiy tovarlar va xizmatlar, onlayn ijodkorlik, yuqori darajadagi domenlar, mamlakat kodi "TLD" hamda vikipediya tahrirlari kabi ko'rsatkichlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi va ushbu yo'nalishda qator chora-tadbirlarning belgilanishi, ayni paytda umummilliy harakatga aylangan borayotgan uchinchi Rennessans poydevorini yaratish yo'lida olib borilayotgan ishlar xalqaro indekslar va reytinglardagi ko'rsatkichlarimizni yanada yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zotan, ezuq maso'adlarimizning barcha haqqi yo'qasi yaratilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi amalda ishlamoqda. Bu esa Global innovatsion indeks bilan birga boshqa nufuzli xalqaro indeks va reytinglar (Global raqobatbardoshlik indeksi, Jahon iqtisodiy forumi, "INSEAD" xalqaro biznes-maktabi, Cornell universiteti, Xalqaro intellektual mulk tashkiloti, "WIPO", "Yashil" iqtisodiyot global indeksi, "Dual Citizen LLC" tashkiloti hamda Sanoat raqobatbardoshligi indeksi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkilotiga kirish, ularda munosib baholarga ega bo'lish hamda yildan-yilga yuqorilab borishimizga zamin bo'lmoqda.

Sirasini aytganda, Global innovatsion indeksda uzoq vaqt mobaynida iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga erishib kelayotgan mamlakatlar orasida bugun O'zbekiston ham ko'rinib berishi xalqimiz dunyoda hech kimdan kam emasligini yanada bir isbotidir. Xalqimiz bundan faxr-iftixor tuyib, yangi marralar sari ruhanlani, shubhasiz.

Nurbek RIZAYEV, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori, iqtisodiyot fanlari doktri.



"O'zbekiston Global innovatsion indeksning 2023-yil reytingida kutilgan natijadan innovatsion ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlar safida (Hindiston, Ukraina, Vietnam, O'zbekiston, Filippin, Pokiston, Senegal, Indoneziya) qayd etildi. O'zbekiston 2030-yilga borib ushbu reytingning kuchli 50 taligidan joy egallashi uchun umumiy ko'rsatkichlarni kamida 7,2 ga oshirishi lozim. Mazkur holatda bugungi kunda kuchli 50 talikning quyi chegarasida Qatar davlati 33,4 reyting bilan joylashgan. Darhaqiqat, bu o'z-o'zidan bo'lmaydi. Shunga qaramay, tahlil natijalari va erishilayotgan muvaffaqiyatlarni inobatga olib aytish mumkin, biz yaqin yillarda ko'zlangan maqsadlarga erisha olamiz. Biroq qo'liga kiritilayotgan yutuqlardan havolanib ketmasdan, qo'yilgan marralar sari faqat olg'a intilish, ilm olish, izlanish, innovatsiya, tajriba orttirish, yaratuvchanlikni davom ettirish lozim. O'zbekistonning Global innovatsion indeks reytingida so'nggi yillarda yuqorilishi va o'z pozitsiyasini saqlab qolganini quyidagi eng muhim 7 ta indikator ma'lumotlarida ko'rish mumkin (AKT)da 63-o'rin, hukumatimizning onlayn xizmatlari 9 darajaga pasaygan bo'lsa-da 57-o'rinda, "Ye-elektron" bo'yicha hatto kuchli 10 talikka da'vogarlik qiladigan ko'rsatkichimiz ham yo'q emas, masalan, yalpi kapitalga qo'yilmalar YIMga nisbatan 6-o'rin! "Infratuzilma" indikatorida Turkiya 41-o'rin — kuchli, Qozog'iston 59-o'rin — kuchli, Ozarbayjon 95-o'rin — juda zaif, kuzatuvchi mamlakat Vengriya 42-o'rin — kuchli tomonlarga ega deb baholangan. Mamlakatimiz ham deyarli ijobiy ko'rsatkichlarga ega, shunday bo'lsa-da, reytingi yuqori bo'lgan Turkiya va Vengriya davlatlarining tajribalarini o'rganish kelgusida reytingda yanada yuqorilashimizga asos bo'ladi. Reytingning to'rtinchi — "Bozorning jozibadorligi" (Market sophistication) ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimiz 69-o'ringa loyiq ko'rilgan (mazkur indikatorda pasayish bo'lgan). Bunda kreditlar, ko'tarildi, kullas, o'sish tendensiyasi kuzatilmog'ida. Yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlardagi islohotlar asosida tadbirkorlik subyektlarining paydo bo'lishi va ulardagi mehnat unumdorligini yuqorilgiga xalqaro reytingda ham ahamiyat qaratiildi. Ya'ni, mehnat unumdorligini o'sishi bo'yicha reytingda 6-o'rin! "Ilmiy va texnologik natijalar" indikatorida Turkiya 44-o'rin — kuchli, Qozog'iston 83-o'rin — zaif, Ozarbayjon 114-o'rin — o'ta zaif, kuzatuvchi mamlakat Vengriya 26-o'rin — o'ta kuchli tomonlarga ega deb topilgan. Ushbu indikator natijalari bilan biz har qancha faxrlansak arziydi, sababi kuchli 10 talikka kirgan natijalarimiz ham bor. Shunday bo'lsa-da, Turkiya va Vengriya tajribalarini o'rganish asnosida kelgusida bundan-da yaxshi natijalarni qayd etish lozim. "Ijod mahsuli" (Creative outputs)

